

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi

Xo'jalik shartnomasi

2. Loyihaning nomi

Yuridik shaxslar uchun elektr ta'minoti shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqida ma'lumot

Karmana tumani tibbiyot birlashmasi. 20.01.2022-y.

XULOSA

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, 1998-yil 29-avgustdagi 670-I-son "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentabrdagi PQ-3953-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-noyabrdagi 511-son "Elektr energiyasidan foydalanganlik uchun hisob-kitob qilish mexanizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2011-yil 24-avgustdagi 241-sonli "Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning xarid qilishda 15 foizdan ortiq miqdorda avans to'lashi mumkin bo'lgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda 2018-yil 12-yanvardagi 22-son qarori bilan tasdiqlangan Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalariga asosan ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bosh yuriskonsult



D.Ergashova
20.01.2022-y.